VATANIMIZ OZODLIGI UCHUN KURASHGAN XORAZMLIK SARKARDALAR, O‘LKA TARIXI TAHLILI

Salayev Umrbek Kadambayevich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi PhD
umrbeksalayev25@gmail.com

Matyoqubov Boxodir Umarbek o‘g‘li,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti talabasi
matyoqubovboxodir687@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19690511

“O‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi bo‘lmaydi.” —
Islom Karimov[1].

“Tariximiz buyuk ajdodlarimizning jasoratli va mardona g‘oyalari bilan boyitilgan. Ularning kurashi va mardliklari bugungi kunimiz uchun muhim saboq bo‘lib xizmat qiladi.” **- Prezident Shavkat Mirziyoyev[2].**

Annatatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm vohasining qadimiy va boy tarixi hamda yurt ozodligi uchun kurashgan mashhur sarkardalar faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda massagetlar malikasi To‘maris, vatanparvar qahramon Shiroq, so‘nggi Xorazmshoh hukmdori Jaloladdin Manguberdi hamda sarkarda Temur Maliklarning jasorati tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Yunon va sharq tarixchilari asarlarida keltirilgan ma’lumotlar orqali Xorazm vohasining strategik ahamiyati hamda uning himoyachilarining vatanparvarlik ruhi ochib beriladi. Maqolada ushbu sarkardalarning bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari, ularning tarixiy merosi va milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida Xorazm qahramonlarining jasorati xalq xotirasida muhim tarixiy meros sifatida saqlanib qolganligi ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar. *Xorazm vohasi, Malika To‘maris, Shiroq, Qizilqum, Jaloladdin Manguberdi, Temur Malik, Doroning hujumi, Massagetlar, Muhammad Xorazmshoh, Turkon, Gurganch, Niso shahri, G‘azna, Chingizxon, Baliyon, Sind daryosi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются древняя и богатая история Хорезмского оазиса, а также деятельность известных полководцев, боровшихся за свободу своей родины. В исследовании на основе исторических источников освещаются мужество царицы массагетов Томирис, патриотического героя Ширака, последнего правителя Хорезмшахов Джалолиддина Мангуберди и полководца Темура Малика. На основе сведений, приведённых в трудах греческих и восточных историков, раскрывается стратегическое значение Хорезмского оазиса, а также патриотический дух его защитников. В статье с научной точки зрения анализируется борьба этих полководцев против захватчиков, их историческое наследие и роль в формировании национальной идентичности. В результате исследования показано, что героизм хорезмских героев сохранился в народной памяти как важное историческое наследие.*

Ключевые слова: *Хорезмский оазис, царица Томирис, Ширак, Кызылкум, Джалолиддин Мангуберди, Темур Малик, поход Дария, массагеты, Мухаммад Хорезмшах, Туркон, Гургандж, город Ниса, Газна, Чингисхан, Балиён, река Синд.*

Annotation. *This article analyzes the ancient and rich history of the Khorezm oasis and the activities of famous commanders who fought for the freedom of their homeland. The study highlights the bravery of Queen Tomyris of the Massagetae, the patriotic hero Shiroq, the last ruler of the Khorezmshahs Jalal ad-Din Manguberdi, and the commander Temur Malik, based on historical sources. Using information found in the works of Greek and Eastern historians, the strategic importance of the Khorezm oasis and the patriotic spirit of its defenders are revealed. The article scientifically analyzes the struggles of these commanders against invaders, their historical legacy, and their role in shaping national identity. The study concludes that the bravery of Khorezm's heroes has been preserved in the collective memory of the people as an important historical heritage.*

Keywords: *Khorezm oasis, Queen Tomyris, Shiroq, Kyzylkum, Jalal ad-Din Manguberdi, Temur Malik, Darius' invasion, Massagetae, Muhammad Khorezmshah, Turkon, Gurganch, the city of Nisa, Ghazna, Genghis Khan, Balyon, Sind River.*

Kirish. Xorazm vohasi turli xil talqin qilingan azaldan quyoshli o‘lka. Yilning 300 kuni oftob o‘z nurlarini zaminga sochadi. Tarix guvoh-ki bu yerlar har zamonning o‘zga yurt hukumdorlarini e’tiboridan chetda qolmagan. Hudud uchun to‘rt iqlimdan harakatlar, hiylali o‘yinlar taqdiran ko‘p bo‘lgan. Shu o‘rinda aholi ichidan nomdor sarkarda va jasorat ko‘rsatgan o‘z davrining himoyasi bo‘lgan. Malika To‘maris, Shiroq, Jaloladdin Manguberdi, Temur Maliklar edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yunonistonda (hozirgi Gretsiya) V asrda yashagan Tarix otasi Geradodning “Tarix” kitobida massagetlar malikasi To‘maris, Polienning “Xarbiy hiylalar” asarlarida forslarga bo‘yin egmay kurashgan Shiroq qahramonligi haqida afsona, an-Nasaviyning “Sulton Jaloladdin Mangburni” asarida sarkardaning tarixi bayon qilingan [3].

Strabonning “Tomaris” afsonasi ham Xorazmliklar haqidadir. Unda Eron shoxi Kir II massagetlar qabilasi ustiga yurish qiladi va mag‘lubiyatga uchraydi. Bu tarix butun Yevropaga doston bo‘ladi.

Yunon tarixchisi Palienning ma’lumotlarida keltirilishicha Doroning hujumini yakka-yu yagona (asl kasbi cho‘pon bo‘lgan) Shiroq xiyla yo‘li bilan quloq va burnini kesib, o‘z vatanining tinchligi uchun Eron shoxiga o‘zini jabrlangan sifatida, vatanidan xo‘rlangan bir cho‘pon sifatida tanishtiradi. Shiroq o‘z so‘zida qo‘shinni qisqa masofadan olib o‘tib, to‘g‘ri massagetlar ustiga hujum qilish imkoniyati borligi va buning uchun o‘zi bilan Qizilqum sahrosini kesib o‘tishga chaqiradi. Bunga ishongan Eron shoxi rozi bo‘ladi. Saxroda davom etgan 7 kunlik muvoffaqiyatsiz safar forslarning suvsiz dashtda, ochlik va xo‘rlik azobidan saqlab qolmadi. Qo‘shin qirilib, forslar mag‘lub bo‘ldi.

Geradod, Ktesiy va boshqalarning yozishicha massagetlarda ayollar yuqo‘ri mavqe’ni egallaganlar. “Tarix” kitobida “Kirning massagetlarga qarshi yurishi” degan sarlavha ostida hikoya qilinadi. Hikoyaning keng bayoni “Вестник древней истории” jurnalida, В.В. Латишевнинг “Древние писатели о Скифии и кавказе” maqolalari shaklida 1974. И. Маллаевнинг “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitoblarida keltirilgan[4].

Malika To‘maris qissasining qisqacha mazmuni shundan iborat-ki u tanti vatani uchun va o‘g‘li Sparangiz uchun Eron hukumdori Kir II dan kelini Zarina bilan qasos oladi. Massagetlar yov qo‘shinini yengib, shox Kir II ning boshini oladi va qon to‘ldirilgan meshga soladi, keyin shunday deydi: “Qonga tashna eding, mana to‘yguningcha – ich!” Forslar ustidan erishilgan g‘alaba butun [5].Yevropa, Yunonistonda nishonlanadi.

Tariximizning o‘chmas, mard sarkardalaridan Jaloladdin Manguberdi mo‘g‘ul bosqinchi qo‘shinlariga qarshi mardonovor kurashgan, vatan uchun joni fido bo‘lgan so‘ngi Xorazmshox. O‘rta asr musulmon mualliflaridan, shoxning vaziri va munshiysi bo‘lgan an-Nasaviy uni Mankburni (ya’ni, mank “belgi”, “xol” degan, “xoldor burunli”) deb atagan. Istiqlol sharofati bilan ozodlik va erk kurashchisi sarkarda Jaloladdin Manguberdining tarixiy nomi qayta tiklandi. “Sulton Jaloladdin Manguberdi nafaqat Xorazm, balki O‘zbekistonning faxri va g‘ururidir”, degan keng mavzu va mohiyatga egadir.

Sarkarda 11 yil mo‘g‘ullarga qarshi mardonovor jang olib bordi. 14 marta mo‘g‘ullar bilan kurashdi, 13 marta g‘alabaga erishdi. Jaloladdin buvisi; “Turkon Xotun o‘ziga o‘zi dunyo malikasi unvonini berib, buyruqlariga “Tinchlik va din homiysi, koinot ayollari malikasi - Turkon” deb imzo chekar edi”[6]. Uning izmi bilan Sulton Jaloladdin markazdan chetlashtirilgan bo‘lsa ham, otasi Muhammad Xorazmshoh unga alohida mehr bilan qarar edi.

Mo‘g‘ullar ta’qibidan hayqib, Xurosonda ma’lum vaqt Muhammad Xorazmshoh sargardon bo‘ladi. Plevrit (o‘pkaga suv yig‘ilishi) kasali bilan og‘rib, taxminan 1220-yilning oxirida Kasbiy dengizi Ashuradi orolida quvg‘in, musofirlikda vafot etgan. Hukumdorni Jaloladdin ukalari Oqshoh va O‘zlakshohlar bilan dafn etgan. Sulton Jaloladdin 70 ta kishisi bilan Gurganchga (Xorazmning poytaxti, hozirda Ko‘xna Urganch) yetib keladi. Erksevar kishilardan tashkil topgan qo‘shin bilan Xo‘jand hokimi Temur Malik ham unga qo‘shiladi.

Shu o‘rinda o‘z davrida dunyoni kezib chiqqan arab sayyohi Yoqut al-Hamoviy shunday yozadi: “Men umrimda ushbu shaharga o‘xshash boy va chiroyli shaharni ko‘rmaganman. Bitmas-tugamas boyliklarni va poytaxtining kengligi hamda aholisining juda ko‘pligi va yaxshiligi bilan Xorazmning bosh shahriga o‘xshagan shahar bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman”. Yana bir arab tarixchisi Istaxriyning ta’rificha: “Gurganch Xorazmning eng katta shahri...” o‘g‘uzlar bilan savdo qiladigan joy bo‘lib, u yerda Jurjoniya, Xazarlar va Xurosonga karvonlar jo‘naydi. Undan keyin kelgan Ibn Battuta: “U (Urganch) aholisining ko‘pligidan dengiz singari to‘lqillanib turadi”, deb yozgan edi. Al – Qazviniyning ta’rifi: “Gurganch – farishtalar nazari tushgan juda chiroyli shahardir. Poytaxt aholisi mohir hunarmand bo‘lgan”[7].

Mo‘g‘ullar ellik ming kishi xasharchi va yigirma ming mo‘g‘uldan iborat harbiy kuch bilan Xo‘jand atrifiga yetib kelganlarida, shaharni Temur Malik qo‘riqlab turar edi. Shaharni qo‘riqlashga kuchi yetmagan o‘zbek bahodiri mingta kishisi bilan Sirdaryo bo‘yidagi orolga joylashadi. Mo‘g‘ullar uni egallashga kuchi yetmay uch farsang naridagi qoyadan tosh keltirib daryoni to‘sishga harakat qiladi.

Temur Malik olovli o‘qlar ta’sir qilmasligi uchun sirka qo‘shib loy bilan qorishtirib usti kigiz bilan qoplangan kemalar yasadi. Shundan 70 ta kema bilan bir guruh jangchilar kechqurun daryoni kechib Xorazmga yetib borib, Jaloladdin Manguberdi qo‘shiniga qo‘shiladi.

Otasi o‘limidan keyin Jaloladdin Gurganch himoyasiga otlandi. Uni hokimiyatdan chetlashtirganlari yetmagandek uni yo‘q qilish payiga ham tushganlar bo‘ldi. Bu paytda sarkarda 300 kishilik qo‘shin bilan poytaxtdan chiqib, Niso shahri yaqinidagi 700 [4. A.]otliq mo‘g‘ul askarlarini qirib tashladi. Bu mo‘g‘ullar ustidan ilk g‘alaba bo‘lib, ularni yengish uchun ishonch paydo bo‘ldi.

Nishopurda kuch to‘plash imkoni yo‘q edi. Qandahor yaqinida Hirot hokimi Amin Malik boshliq 10 minglik qo‘shinni birlashtirib Qandahorni qamal qilib turgan mog‘ullarga hujum qildi. Uch kunda mo‘g‘ullar ustidan g‘alabaga erishdi. Niso

g‘alabasi tasodifiy emas edi. Buni anglagan Chingizxon o‘ziga mos raqibni uchratganini tushunib yetdi.

Manguberdi G‘aznaga kelib Balx hokimi, afg‘on va qarluqlarning boshliqlari unga qo‘shilda. Katta kuch bilan G‘aznadan chiqib Baliyonni qamal qilib turgan mo‘g‘ullarni 1000 dan ortiq qo‘shinini yanchib tashladi.

Chingizxon bundan darg‘azab, 45000 kishilik qo‘shinni mohir sarkardalar bilan anushteginiylar ustiga yuboradi. Bu jang Parvon dashti jangi nomi bilan tarixda qoldi. Mo‘g‘ullarning ishlatgan xiylalariga qaramay, askarlar otdan tushub jang qilish, kamondan o‘q otish va yalpi xujumga o‘tish bilan g‘alabaga erishdi. Jaloladdin Manguberdi mo‘g‘ul qo‘shinlari ichiga yorib kirib, bir necha marotaba jangavor saflarni buzub yuboradi. Bu mardonovor jangdan xabar topgan Chingizxon hal qiluvchi jangga otlanadi. Parvon g‘alabasida ruxlangan Jaloladdinning birlashgan qo‘shinlari qo‘lga kiritilgan o‘ljalarni bo‘lisha olmay xalaj, avg‘on va qarluq amirlari safni tashlab chiqib ketadi. Keyinchalik mo‘g‘ullar ularni ketidan barchasini yo‘q qiladi.

1221-yili Sind daryosidan narigi tomonga o‘tishga tayyorgarlik ko‘rayotgan Jaloladdin Manguberdiga mo‘g‘ullarning Chingizxon boshchiligidagi asosiy qo‘shinlari xujum qiladi. Uch kunlik qamal, Jaloladdinni triklayin qo‘lga olish uchun mo‘g‘ul jangchilari jonli xalqa qiladi. 700 kishilik qo‘shin bilan qarshi xujum vaqtida Jaloladdinning yetti-sakkiz yashar o‘g‘li asir tushub uning ko‘z o‘nggida o‘ldiriladi. Shu lag‘zada omon qolish dargumon, pistirma sarkarda 10 gazlik (gaz – 71 metr uzunlik o‘lchovi) daryoga sakraydi. Chingizxon alamidan yoki xavasda “otaning o‘g‘li bo‘lsa, mana shunday bo‘lsin, suv va olovning qo‘sh girdobidan qutilib keta oldimi, uning qo‘lidan hali ko‘p ish va sanoqsiz qo‘zg‘olonlar uyushtirish keladi”, degan ekan[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Xorazm tarixiga oid adabiyotlar, tarixiy-taqqosiy yondashuv hamda institutsional o‘zgarishlarni davrlashtirish usullari qo‘llanildi. Ommabob nashrlar, internet ma’lumotlari, saytlar va suniy intelekt yordamida mavzuga oid sirli ma’lumotlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Xorazm vohasi tarix davomida ko‘plab bosqinchilar va kuchli qo‘shinlar qarshisida mustahkam turgan hudud bo‘lgan. Tarixiy manbalar va afsonaviy qahramonlar (To‘maris, Shiroq, Jaloladdin Manguberdi, Temur Malik) faoliyati shuni ko‘rsatadiki, hududni himoya qilishda **strategik fikrlash, jasorat va milliy birlik** asosiy omil bo‘lgan[9]. Maqolada keltirilgan manbalar tahlili orqali, Xorazm sarkardalari o‘z davrining eng murakkab siyosiy va harbiy vaziyatlarida xalq va vatanni birinchi o‘ringa qo‘ygan. Shu tariqa, ular nafaqat o‘z hududining, balki butun mintaqaning tarixiy o‘zligini saqlab qolishga xizmat qilgan[10].

Xulosa va takliflar. Xorazm vohasi tarix davomida ko‘plab bosqinchilar va kuchli qo‘shinlar qarshisida mustahkam turgan hudud bo‘lgan. Tarixiy manbalar va afsonaviy qahramonlar – To‘maris, Shiroq, Jaloladdin Manguberdi va Temur Malik – o‘z davrida vatan va xalqini himoya qilishda jasorat, strategik tafakkur va milliy birlikni namoyon qilgan. Ularning faoliyati Xorazmni nafaqat hududiy, balki mintaqaviy ahamiyatga ega markaz sifatida saqlab qolishga xizmat qilgan. Maqolada keltirilgan tarixiy manbalar orqali sarkardalarning xalqning ozodligi yo‘lida olib borgan kurashlari, g‘alabalari va mardligi yoritiladi. Shu tariqa, ularning merosi zamonaviy avlod uchun milliy g‘urur va vatan himoyasi timsoli bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Islom Karimov, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: 1998. Islam Karimov, Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch (High Spirituality – An Invincible Force). – Tashkent: 1998.
2. https://www.tashkenttimes.uz/national/13630-shavkat-mirziyoyev-s-address-at-independence-anniversary-ceremony?utm_source=chatgpt.com. Shavkat Mirziyoyev, “Shavkat Mirziyoyev’s Address at the Independence Anniversary Ceremony.” The Tashkent Times. Available at: https://www.tashkenttimes.uz/national/13630-shavkat-mirziyoyev-s-address-at-independence-anniversary-ceremony
3. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – T.: 2024. B. 42. R. H. Murtazayeva, History of Modern Uzbekistan. – Tashkent: 2024. p. 42.
4. Xorazm tarixi. Urganch-1996. B. 57. History of Khorezm. – Urgench: 1996. p. 57.
5. Google.com. Google. Google Search. Available at: https://www.google.com.
6. Михаил Иванин. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур: ҳарбий санъати, стратегия ва тактикаси. Таржимон Акмал Маҳкамов. – Т.: 2018. Б. 64. Mikhail Ivanin, Two Great Commanders: *Genghis Khan* and *Amir Temur* — Their Military Art, Strategy and Tactics. Translated by Akmal Mahkamov. – Tashkent: 2018. p. 64.
7. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. T.: 2020. B. 148. A. Kh. Doniyorov, Historiography of the Peoples of Central Asia. – Tashkent: 2020. p. 148.
8. Аскаров А. Ўзбекистон тарихи. – Т.: 2022. Б. 186-188. A. Askarov, History of Uzbekistan. – Tashkent: 2022. pp. 186–188.
9. https://chatgpt.com/. OpenAI, ChatGPT. Available at: https://chatgpt.com/
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xorazmiylar. Wikipedia, Khwarazmian Dynasty. Available at: https://uz.wikipedia.org/wiki/Xorazmiylar